

MOVAROUNNAHRDA SHAYBONIYLAR SULOLASINING HUKMRONLIGINI O'R NATILISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI

Axmakov Davron Azamat o'g'li

Oriental universiteti

Tarix fakulteti magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Movarounnahrda Shayboniylar sulolasining hukmronlik davrining boshlanishi, siyosiy va harbiy jarayonlar, sulola vakillarining faoliyati, shuningdek, ushbu o'zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga ta'siri tahlil qilinadi. Shayboniylar tomonidan Temuriylar hukmronligining tugatilishi va Yaqin Sharqdagi kuchlar muvozanatining o'zgarishi tarixiy manbalar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Shayboniylar, Movarounnahr, Temuriylar, Muhammad Shayboniyxon, tarixiy jarayon, siyosiy hokimiyat, O'rta Osiyo tarixi.

Movarounnahr hududi tarixda ko'plab sulolalarning hukmronligi ostida bo'lgan. XV asrning oxiri va XVI asr boshlarida ushbu mintaqada yangi siyosiy kuch – Shayboniylar sulolasi hukmronligi o'rnatildi. Ularning hukmronlikka kelishi Temuriylar davlatining zaiflashuvi va parchalanishidan so'ng yuz berdi. Shayboniylar hukmronligining o'rnatilishi O'rta Osiyo tarixida muhim burilish nuqtasi bo'ldi.

Shayboniylar sulolasi Chingizxonning o'g'li Jo'chining avlodini bo'lgan Shaybonning nomi bilan atalgan. Ularning dastlabki siyosiy faoliyati Dashti Qipchoq hududlarida yuzaga kelgan bo'lib, asta-sekin Movarounnahr tomon siljiy boshladilar.

Muhammad Shayboniyxonning siyosiy va harbiy faoliyatidagi asosiy maqsad — Temuriylar sultanatiga barham berib, uning o'rnidagi mustahkam yangi davlat asoslarini yaratish edi. Bu niyatni amalga oshirish maqsadida u 1499-yilda Movarounnahr tomon keng qamrovli harbiy yurishni boshladi. Shayboniyxon o'zining jangovar mahorati, ayniqsa, raqiblarini chalg'itishga asoslangan "to'lg'ama" deb nomlangan noyob harbiy usuli bilan tezda muvaffaqiyatga erisha boshladi. Bu usul raqib askarlarini sarosimaga solib, ularni tartibsiz holatga keltirishga xizmat qilgan.

1499-yildan boshlab harbiy harakatlar avj oldi. Natijada, Shayboniyxon 1500-yilda birinchi marta Samarqand shahrini qisqa muddatga bo'lsa-da egallashga muvaffaq bo'ldi. Bu voqeя yangi davr boshlanishiga sabab bo'lib, aynan shu yili Shayboniyxon tomonidan yangi siyosiy tuzilma — Shayboniylar davlati asos solinganligi tarixga muhrlandi. Oradan bir yil o'tib, ya'ni 1501-yilda Shayboniyxon Samarqandni to'liq bo'ysundirib, uni o'z hukmronligi ostiga kiritdi. Shu munosabat bilan Temuriylar vakillaridan bo'lgan Sulton Ali Mirzo qatl etildi.

Bu yutuqlardan so‘ng Muhammad Shayboniyxon o‘zining kuchli qo‘smini bilan Movarounnahrning boshqa hududlarini ham egallashga bel bog‘ladi. 1503-yilda Toshkent va Shohruxiya shaharlarini zabit etdi. O‘z davlati hududlarini samarali boshqarish maqsadida u qarindoshlariga yirik shaharlarda hokimlik lavozimlarini taqsimladi. Jumladan, Temuriylar sulolasining nufuzli vakili Ulug‘bek Mirzoning Abulkayrxonga turmushga chiqqan qizi Robiya Sultonbegimning o‘g‘illari — Ko‘chkunchi Sulton va Suyunchxo‘ja Sulton — tegishli ravishda Turkiston va Toshkent viloyatlariga hokim etib tayinlandilar. Shayboniyxonning o‘z ukasi Mahmud Sulton esa Buxoro viloyatini boshqarishga yuborildi.

Shayboniyxonning harbiy yurishlari 1504-yilda ham davom etdi va bu yil Farg‘ona vodiysi ham Shayboniylar tasarrufiga o‘tdi. U o‘zining sodiq va harbiy yurishlarda faol qatnashgan amakisining o‘g‘li Jonibek Sultonni Aksi va Andijon shaharlariga hokim qilib tayinladi. Jonibek Sulton Abulkayrxonning o‘g‘li Xo‘ja Mahmud Sultonning farzandi bo‘lgan. Bu tayinlovlar Shayboniylar oilasining siyosiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qildi.

Shu tariqa, Muhammad Shayboniyxon boshlab bergen yurishlar natijasida butun Movarounnahr hududi yangi tuzilgan Shayboniylar sulolasi hukmronligi ostiga o‘tdi. Shayboniylar davlati poytaxti etib qadimiy va siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan Samarqand shahri tanlandi. Bu tarixiy jarayon Markaziy Osiyoda yangi davlatchilik an‘analarining shakllanishiga zamin yaratdi va keyingi siyosiy barqarorlikning asoslarini belgiladi.

Muhammad Shayboniyxon (1451–1510) Shayboniylar sulolasining asoschisi bo‘lib, u Temuriylar davlatining zaiflashgan paytida siyosiy sahnaga chiqdi. U 1500-yilda Buxoroni egallab, 1501-yilda Samarqandni, 1506-yilda esa Hirotni zabit etdi. Bu bilan Temuriylar hukmronligiga barham berdi.

Shayboniylar O‘rta Osiyoda markazlashgan davlat tuzishga harakat qilgan. Ular harbiy islohotlar o‘tkazgan, davlat boshqaruvini kuchaytirgan, shariatga asoslangan qonunlar joriy etganlar. Ayniqsa, Buxoro va Samarqandda madaniy hayot tiklanib, ilm-fan rivojiga hissa qo‘silgan.

Shayboniylar davrida Movarounnahrdha hunarmandchilik, savdo, dehqonchilik rivojlandi. Karvon yo‘llari faoliyat ko‘rsatdi, yangi madrasa va masjidlar barpo qilindi. Ilm-fan namoyandalari qo‘llab-quvvatlandi. Shu bilan birga, diniy hayotda hanafiylik maktabi kuchaytirildi.

Bundan tashqari, Shayboniylar Movarounnahrga o‘z siyosiy hukmronligini o‘rnatgach, bu hudud iqtisodiy va madaniy jihatdan asta-sekin ravnaq topa boshladi. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘lining savdo aloqalari tiklana boshlagani bu jarayonning muhim tarkibiy qismi bo‘ldi. Shayboniylar savdo yo‘llarining xavfsizligini ta’minlash borasida qat’iy choralar ko‘rganlari tufayli, xalqaro savdoning rivojlanishi uchun qulay

sharoit yuzaga keldi. Natijada, Movarounnahr nafaqat iqtisodiy jihatdan tiklandi, balki bu o‘zgarishlar butun ijtimoiy hayotda sezilarli bo‘ldi.

Shayboniylar davri Movarounnahr tarixida tub burilish yasagan yangi bosqich sifatida e’tirof etiladi. Bu davrda siyosiy barqarorlikka erishish bilan birga, iqtisodiy faoliyat jonlandi, ilm-fan va madaniyat sohalarida sezilarli yuksalish kuzatildi. Ayniqsa, markazlashgan boshqaruvi tizimining joriy etilishi mintaqada tartib va intizomni ta’minladi hamda samarali davlat boshqaruvi uchun zamin yaratdi. Shayboniylar tomonidan amalga oshirilgan siyosiy va harbiy islohotlar mintaqaning keyingi taraqqiyoti uchun muhim tayanch bo‘ldi.

Shayboniylar sulolasining hukmronligi faqatgina Movarounnahr doirasidagina emas, balki uning tashqarisida joylashgan hududlarda – jumladan, Xuroson, Dashti Qipchoq, Balx va boshqa qo‘suni yerlar taqdirida ham muhim rol o‘ynadi. Sulola o‘zining harbiy kuchi, diplomatik siyosati va davlat boshqaruvi orqali keng hududlarni o‘z ta’sir doirasiga kiritishga muvaffaq bo‘ldi.

Shayboniylar sulolasi Movarounnahrda hukmronlikni qo‘lga kiritgach, markazlashgan davlat tizimini barpo etishga katta e’tibor qaratdi. Muhammad Shayboniyxon mamlakatni boshqarishda harbiy siyosatni asosiy ustunliklardan biri sifatida belgiladi. U yirik viloyatlarga tayinlangan hokimlar – amirlar faoliyatini nazorat ostiga olib, ularning mustaqil harakat qilishiga yo‘l qo‘ymadi. Bu esa davlat boshqaruvida yagona siyosat yuritilishiga imkon berdi. Shayboniylar davlati boshqaruvi shar’iy qonunlar – shariat va mahalliy urf-odatlarga tayanib olib borilgan bo‘lib, bu siyosat aholining diniy va madaniy qadriyatlariga mos ravishda yo‘naltirilgan edi.

Muhammad Shayboniyxon diniy g‘oyalarni davlat ideologiyasiga aylantirish orqali o‘z hokimiyatining siyosiy asoslarini mustahkamladi. U islom dinini jamiyatni birlashtiruvchi vosita sifatida targ‘ib qildi. Ayniqsa, ulamolarni qo‘llab-quvvatlash, masjid va madrasalarni qurish, diniy bilimlarni rivojlantirish orqali keng xalq ommasining ishonchini qozondi. Bu holat diniy elitani hokimiyat bilan yaqinlashtirib, davlat boshqaruvida ularning ishtirokini kuchaytirdi.

Shuningdek, Shayboniylar davlat tuzilmasida markaziy va mahalliy hokimiyat o‘rtasida muvozanatni ta’minalash muhim vazifa hisoblangan. Harbiy kuch esa davlatning asosiy tayanchi sifatida ko‘rilgan. Ayniqsa, ko‘chmanchi qabilalarning jangchilaridan faol foydalanilgan. Bu harbiy siyosat ichki tartibni saqlash va tashqi xavflarga qarshi turish imkonini yaratdi. Natijada Movarounnahrda siyosiy barqarorlik vujudga kelib, iqtisodiy va madaniy rivojlanishga zamin yaratildi.

Shayboniylar hukmronligi davrida iqtisodiy sohada ham muhim islohotlar amalga oshirildi. Ular Movarounnahr hududining tabiiy va geografik imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga harakat qildilar. Ayniqsa, Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan yirik shaharlar – Samarqand, Buxoro va Hirot savdo-sotiqning markazlariga

aylantirildi. Karvon yo'llari xavfsizligini ta'minlash uchun maxsus harbiy postlar va kuzatuv tizimlari tashkil etildi.

Dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida sug'orish tizimlari isloq qilindi. Eski ariq va kanal tizimlari qayta ta'mirlanib, yangi kanallar qazildi. Amudaryo, Zarafshon va boshqa daryolar bo'ylarida joylashgan hududlarda sug'oriladigan yerlar soni keskin ortdi. Bu holat qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hosildorligini oshirdi, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamladi hamda ichki bozorning rivojlanishiga xizmat qildi. Ayniqsa, paxta, g'alla va bog'dorchilik mahsulotlari yetishtirish ko'laming kengayishi mamlakat iqtisodiyotiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

Shayboniyalar Eron safaviylari, Xitoy va Hindiston davlatlari bilan diplomatik va harbiy munosabatlar o'rnatgan. Ayniqsa, Safaviylar bilan bo'lgan kurash Muhammad Shayboniyxonning 1510-yilda Marv jangida halok bo'lishi bilan yakun topdi.

Shayboniyalar sulolasining tashqi siyosatidagi eng dolzarb masala Eron Safaviylari bilan bo'lgan ziddiyat edi. Safaviylar Movarounnahr hududlariga da'vo qilganliklari bois, ikki sulola o'rtasida siyosiy va harbiy raqobat kuchayib bordi. Bu ziddiyat, bir tomondan, diniy sabablarga ham tayanardi – Safaviylar shia mazhabini yoyishga urinayotgan bir paytda, Shayboniyalar sunniy islomni himoya qilgan. Natijada, ikki qudratli davlat o'rtasidagi qarama-qarshilik faqat siyosiy emas, balki diniy zaminlarga ham ega bo'ldi.

Shunga qaramay, Shayboniyalar boshqa qo'shni davlatlar bilan savdo va diplomatik aloqalarni ham yo'lga qo'yishga harakat qildilar. Bu aloqalar davlatning tashqi siyosiy mavqeini mustahkamlashga, savdo imkoniyatlarini kengaytirishga va madaniy almashinuvni rivojlantirishga xizmat qildi.

Shayboniyalar hukmronligi davomida Movarounnahrda madaniy va ilmiy rivojlanish barqaror davom etdi. Bu davrda ilm-fan, din, san'at va me'morchilik sohalarida katta yutuqlarga erishildi. Ayniqsa, Samarqand va Buxoro shaharlari nafaqat siyosiy markaz, balki butun musulmon sharqining yirik ilmiy va madaniy o'choqlariga aylanishi bilan ajralib turdi. Shayboniyalar sulolasi o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida diniy bilimlarni rivojlantirish va ulamolar faoliyatini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratdi. Masjidlar, madrasalar va kutubxonalar barpo etilishi bu siyosatning amaliy ifodasıdir.

Shayboniyalar, xususan Muhammad Shayboniyxon, diniy va dunyoviy ilmlarni birgalikda rivojlantirish zaruratini tushungan holda, yirik ilmiy markazlarni qo'llab-quvvatladi. Bu markazlarda tafsir, fiqh, hadis, falsafa, tibbiyot va boshqa fanlar bo'yicha mashhur olimlar faoliyat yuritgan. Bu ilmiy muhit, ayniqsa, Buxoro shahrida kuchli bo'lib, u yerda joylashgan Mir Arab madrasasi Shayboniyalar davri ilm-fan va dini ta'limining yuksak namunasi hisoblanadi. Ushbu madrasa o'rta asrlar islom olamida mashhur bo'lgan ta'lim maskanlaridan biri sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi.

Bundan tashqari, Shayboniyalar davrida me'morchilik san'ati ham yangi bosqichga ko'tarildi. Madrasalar, masjidlar, maqbaralar va saroylar bunyod etildi. Ularda o'sha davr me'moriy uslublari – koshinkor bezaklar, gumbazli inshootlar va naqqoshlik san'ati yuksak darajada namoyon bo'lgan.

Shayboniyarning siyosiy va harbiy muvaffaqiyatlari tufayli Movarounnahrda ichki barqarorlik vujudga keldi. Bu barqarorlik esa madaniy va ilmiy rivojlanish uchun qulay muhit yaratdi. Sulola o'zining siyosiy hokimiyatini faqat harbiy kuch bilan emas, balki xalqning diniy, ilmiy va madaniy qadriyatlariga hurmat asosida yuritdi. Shu bois Shayboniyalar davri Movarounnahr tarixida muhim bosqichlardan biri sifatida e'tirof etiladi.¹

Xulosa qilib aytganda, Shayboniyalar sulolasining Movarounnahrda hukmronligi yangi tarixiy davrning boshlanishiga sabab bo'ldi. Temuriylardan keyingi siyosiy bo'shliqni to'ldirgan bu sulola O'rta Osiyoda markazlashgan davlatni tiklashga harakat qildi. Shayboniyalar sulolasining hukmronligi nafaqat siyosiy jihatdan markazlashgan boshqaruv tizimini shakllantirdi, balki iqtisodiyotni tiklash, savdo-sotiqni rivojlantirish va madaniy hayotni yuksaltirishga ham xizmat qildi. Umuman olganda, Shayboniyalar sulolasining Movarounnahrda hukmronlik qilishi o'zbek davlatchiligi tarixida yangilanish va tiklanish davri bo'lib, u siyosiy barqarorlik, madaniy yuksalish va dini qadriyatlarni mustahkamlash orqali bugungi milliy o'zlikni shakllantirishda muhim bosqich bo'lib qolmoqda. Ularning siyosiy va madaniy merosi keyingi sulolalarga, xususan, Ashtarkoniylar va Mang'itlarga ta'sir ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A. O'zbekiston tarixi (2-jild). Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 2019.
2. Bobur Z. Boburnoma. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2015.
3. Bartold V.V. Turkistonning mongollar davrigacha va mongollar davridagi tarixi. Toshkent: Fan, 2006.
4. Qosimov B. Shayboniyalar davlati va uning madaniy hayoti. Samarqand, 2010.
5. Rahmonov I. Movarounnahrda siyosiy kurashlar tarixi. Toshkent: "Yangi asr avlod", 2020.

¹ Rahmonov I. Movarounnahrda siyosiy kurashlar tarixi. Toshkent: "Yangi asr avlod", 2020.